



ISLOM MOLIYASI – MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xudoynazarov Faxritdin Xaitovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Islom moliyasi muammo va yechimlari haqida so'z yuritilib, iqtisodiyot fani mutaxassislarining qarashlari va xorij tajribalari o'rganilgan. Unda islom moliyasi tizimidagi muammoli vaziyatlar va ularning yechimlari haqida ilmiy-uslubiy, amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, musovama, tavarruq, istijror, istisna, ijora, qarzi hasana, bay-al-dayn, sukuk, murohaba, mushoraka, muzoraba, havola, mulk, mikroiqtisodiyot.

ИСЛАМСКИЕ ФИНАНСЫ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Худайназаров Фахритдин Хайтович
Термезский университет экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы исламских финансов и пути их решения. Кроме того, рассматриваются мнения экспертов-экономистов и зарубежный опыт, представлены научно-методические, практические предложения и рекомендации о проблемных ситуациях в системе исламских финансов и пути их решения.

Ключевые слова: исламские финансы, мусавاما, таваррук, истиджрар, истиснаа, иджара, кредит хасана, бай-ал-дайн, сукук, мурахаба, мушарака, мудараба, добственность, микроэкономика.

ISLAMIC FINANCE: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Khudaynazarov Fakhritdin Khaitovich
Termez University of Economics and Service

Abstract. This article discusses the problems of Islamic finance and ways to solve them. In addition, the opinions of expert economists and foreign experience are considered, scientific, methodological, practical proposals and recommendations on problematic situations in the Islamic finance system and the ways to solve them have been worked out.

Keywords: islamic finance, musawamah, tawarruq, istijrar, istisna, ijara, hasanah qard, bai al-dayn, sukuk, murabaha, musharaka, mudaraba, remittances, property, microeconomics.

Kirish.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda, boshqa barcha tarmoqlar kabi moliya sektori ham hozirgi o'sish davrida yangi resurslarni o'zlashtirish va boyitishga alohida ahamiyat bermoqda. Jahonda, ayniqsa, rivojlangan Yevropa davlatlari va AQSHda tobora ommalashib borayotgan islom moliyasini mamlakatimiz milliy moliya bozoriga joriy etishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar investitsiya agentligi direktori Bandar bin Saud Ol Soniy bilan suhbat chog'ida bank-moliya xizmatlarini, jumladan, islom moliyasini rivojlantirish muhimligini bildirib o'tdi²⁹. Bu esa sohaning O'zbekiston moliya bozori uchun muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Islom dini faqat keyingi hayotga ahamiyat berib qolmay, balki dunyoviy ishlar haqida ham o'zining qarashlariga egadir. Biroq, islom iqtisodiyoti avloddan-avlodga keng tushuntirilib o'tilmagan. Bundan ham ajablanarlisi shundaki, G'arb ziyolilari tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiyotning asosiy mazmuni aslida islomiy iqtisodiy mutafakkirlarning asarlarida aytib o'tilgan. Ilmiy tadqiqotlar olib borgan islom olimlari G'arb ziyolilari va islom mutafakkirlarning fikrlarida juda ko'p o'xshashliklar borligi aniqlangan, ammo ikkinchisi ancha avvalgi davrlarda boshlangan. Quyida ba'zi o'xshashliklarni keltirib o'tamiz:

1. Paretoning optimal nazariyasi Imom Alining "Nahjul balog'a" deb nomlangan asarida aytib o'tilgan.

2. Siro-Yakovitdagi Bar-Ebrey cherkovining xodimi Mafrian (Abulfaraj nomi bilan ham tanilgan) Imom G'azzoliy tomonidan yozilgan "Ehyou ulumid din" kitobining bir nechta boblaridan foydalangan.

3. Ordo Dominikan (Ispaniya) cherkovidan ruhoniy Raymond Martini Imom G'azzoliyning "Tahafut ul falasifa", "Maqosidul falasifa", "Al-munqiz min az-zalal", "Mishkot ul anvor", "Ehyou ulumud din" asarlaridan foydalanib, iqtisodiyotga oid ko'plab boblarni qayta yozib chiqqan.

4. Avliyo Foma Akvinskiy kitobining ko'p boblarini Farobiyning qarashlaridan o'zlashtirgan.

5. Adam Smitning (1776) "Millatlar boyligi" asari Abu Ubayd al-Qosim ibn Sallamaning (vaf. 838/) "Kitob al-Amvol" asarlari bilan juda ko'p umumiyliklarga ega.

Islom mutafakkirlari va olimlari tomonidan taqdim etilgan iqtisodga oid ko'plab boshqa asarlar ham mavjud. Ilk islom mutafakkirlarining iqtisodga oid ba'zi asarlarini keltirib o'tamiz:

1. Risolat as-sahoba (Mulozimlar haqida risola), Abdulloh bin al-Muqaffa (109-145/727-762). Asarda siyosat va davlat moliyasini boshqarish haqida so'z yuritiladi.

2. Kitob al-Xaroj (Xaroj kitobi), Abu Yusuf (113-182/731-789), moliyaviy menejment haqida so'z yuritiladi.

3. Al-Xaraj (Xaraj haqida), Yahyo ibn Odam al-Qurayshiy (140-203/757-818), hadislar to'plami, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar haqida so'z yuritiladi.

4. "Kitob al-amvol" ("Davlat daromadlari kitobi"), Abu Ubayda al-Qosim ibn Salom (140-157/774-838), siyosat va davlat moliyasi haqida so'z yuritiladi.

5. "Kitob al-amvol" ("Davlat daromadlari kitobi"), Abu Homid bin Zanjaviy (180-251/796-865).

Islom mutafakkirlarining iqtisodiyotga oid asarlariga e'tiborsizlik o'rta asrlarida keng tarqalgan va islom sivilizatsiyasi tanazzuli zamoniga qadar davom etgan. Oqibatda islom iqtisodi haqida ko'p asarlar yozilmadi, natijada bu sohada bo'shliq paydo bo'ldi va ilmlarni tarqatish juda cheklandi. Zamonaviy islomshunos olim Monzer Kaf (1989) Abu Yusuf, Yahyo ibn Odam, G'azzoliy, Ibn Rushd, Al-Izz bin Abdul-Salom, Farobiy, Ibn Taymiya va Ibn Xaldun kabi islom mutafakkirlarining iqtisod nazariyasini o'rganishga yetarlicha e'tibor berilmagan, degan fikrni bildiradi.

Bu guruh olimlari tomonidan bildirilgan fikr va g'oyalar boshqa musulmon iqtisodchi olimlarni ham islom iqtisodiy bilimlari sohasini tadqiq etish va rivojlantirishga undaydi. Natijada, musulmon iqtisodchilari islom iqtisodiyotining rivojlangan nazariyasini qo'llashni qayta ko'rib chiqish va inson manfaati uchun uning chegaralarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

²⁹ O'zbekiston Prezidenti Qatarning yetakchi investitsiya idorasi rahbarini qabul qildi. <https://president.uz/uz/lists/view/6714>

Hozirgi vaqtda musulmon ziyolilarining uchta guruhi mavjud bo'lib, ular ushbu bilimlarni qayta tiklashga bel bog'laganlar. Birinchi guruh islom iqtisodiyoti tushunchasini qaytadan ko'rib chiqishni boshladilar. Bu guruh ta'limotni birinchilardan bo'lib targ'ib qildi va Islomning iqtisod haqidagi ta'limoti keng qamrovli bo'lib, odamlar duch keladigan iqtisodiy muammolarni hal qila oladi, deb hisoblaydilar. Ular Islomning iqtisod haqidagi ta'limotidan foydalanib, ishonchli manbalar asosida tadqiqot olib bormoqdalar. Keyingi guruh esa, ishonarli manbalarga tayangan holda ulamolarning an'anaviy fikrini hozirgi holatga mos talqin va tuzatishlar kiritadigan zamonaviy olimlardir. Biroq, bu zamonaviy guruhning qarashlari jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Uchinchi guruh esa islom iqtisodiga oid masalalar bo'yicha xulosalar chiqarib, G'arbda ta'lim olgan iqtisodchilardan iborat. Bu guruhdagi iqtisodchilar iqtisodiy bilimga ega bo'lib, ulamolar fikrlari asosida tahlil qiladilar. Bu guruh islom iqtisodiy bilimlari rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Bugungi kunda islom iqtisodiyotiga oid yetarli miqdorda asar va tadqiqotlar bo'lishiga qaramay, to'ldirish zarur bo'lgan kamchiliklar va haligacha ko'plab iqtisodiy muammolar mavjud bo'lib to'liq hal etilmagani bu mavzo'ning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Islahi (2010) o'zining "Islom iqtisodchilarining to'rt avlodi" asarida XX asrning ikkinchi choragida (1926-1950) islom iqtisodchilarining birinchi avlod paydo bo'lgani, ular Islom iqtisodiga oid asarlar tasnif etgani, Islom iqtisodining yuksalish davri sifatida tanilgan bu avlod ko'plab olimlarni dunyoga keltirgani haqida ma'lumot beradi.

Abul Hassan, (2019) Choudhury "Islom iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot" asarida Imom G'azzoliy, Ibn Taymiya, Imom Shotibiy, Ibn Qayyim va Ibn Xaldun kabi buyuk islom ulamolari, muftahidlarning asarlarida islomning iqtisodiy va ijtimoiy muammolari Qur'on va hadis ta'limotiga asoslangan holda o'rganilganini ta'kidlashgan.

Mahmud El-Gamal (2006) "Islom moliyasi huquqi, iqtisodiyoti va amaliyoti" asarida Islom moliyasi kafolatlangan kredit operatsiyalarini bajarilishiga qaratilganini eslatgan.

Hoji Maulid Makokha (2017) "Islom iqtisodiyoti va moliyasi" asarida Islom iqtisodiyoti resurslardan samarali va adolatli foydalanish, to'liq bandlik va insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish kabi iqtisodiy ideallarga erishishga intilgani haqida aytib o'tgan.

Kabir Hasan, Mervin Lyuis (2007). "Islom bank ishi bo'yicha" qo'llanmasida likvidlikni boshqarish islom moliya institutlari uchun muammoli soha bo'lib kelgani haqida o'zining qarashlarini keltirgan.

Muhammad Ayub (2007). "Islom moliyasini tushunish" asarida Islom moliyasi an'anaviy moliya tizimi va iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynashi mumkinligini ta'kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzuni ilmiy tadqiq qilishda tarixiy-mantiqiy tahlil va tadqiqotlarni o'z ichiga olgan tizimli tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraksiya kabi yondashuvlar qo'llanilgan. Maqolada islom moliyasining eevolyutsiyasi tarixiy yondashuvdan foydalangan holda, uning zamonaviy jahon moliya bozoridagi o'rni va mamlakat milliy iqtisodiyotidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Islom moliyasining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini o'rganish turli xil yondashuvlar, jumladan qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlashni o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dunyoda eng samarali ishlab chiqilgan moliya modellaridan biri islom moliyasidir, ya'ni shariat talablari asosida o'rnatilgan Islom tijorat qonunchiligida belgilangan cheklovlarga muvofiq biznes yuritishdir. So'nggi o'n yilliklarning global inqirozlari lakmus qog'ozini sinovi bo'lib, mega yirik moliyaviy korporatsiyalarning global makroiqtisodiy notengliklarni yaratishda nojo'ya roli va paydo bo'lgan bozorlarning o'zligini ochib berdi. Bundan tashqari, bank muassasalari va ularning moliyaviy vositachilar sifatidagi vazifalari ham ko'rib

chiqilganda, bank tizimi endi real sektor va butun milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun stimulyator bo'lib xizmat qilmayapti, balki moliyaviy resurslardan foydalanib, resurslarni faqat o'zlarining korporativ manfaatlariga moslashtirayotgani aniqlandi.

Banklarning faoliyatini cheklash, jamiyat va davlat hokimiyati organlari tomonidan yanada ko'proq nazorat o'rnatish bo'yicha funksiyalarini ko'rib chiqish zarur. Bundan tashqari, umumiy progressiv iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladigan ko'plab asosiy omillar mavjudligi sababli, qarz beruvchi moliyaviy modelning o'zi qayta ko'rib chiqiladi. Kredit oluvchi moliyaning haqiqiy bozor alternativi sifatida islom moliyaviy prinsiplarini, shuningdek, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatini ko'rib chiqish taklif etiladi.

Islom investorlarining yangi bozorlarda ish boshlashida, O'zbekistonda islom moliyasi uchun qonunchilik, me'yoriy, tashkiliy va soliq infrastrukturasining mavjudligi, shuningdek, chet ellik investorlarni himoya qilish tizimi hisoblanadi. Islom nazariyasida "pul narxi" tushunchasining o'rnini bosuvchi "kapital samaradorligi" degan yangi termin joriy etiladi. Kapital samaradorligi yanada yetarli iqtisodiy ko'rsatkichdir, chunki u investitsiyalar resurslardan ko'proq asosli ravishda foydalanadigan o'sha sanoat va loyihalarni jalb qilishiga asoslangan holda pul resurslaridan foydalanishning foydaliligi va samaradorligini baholaydi (Журавлев, 2015).

Islom moliya institutlari moliyaviy bozorlarda moliyaviy resurslarni oluvchilar va donorlar o'rtasidagi vositachilar bilan bir xil pozitsiyani egallaydi, Islom banklari chakana va korporativ investorlarning pul mablag'larini jalb qilib, ularni jamg'arib, yirik mablag'larni shakllantiradilar, ular bilan hamkorlikda samaradorlik nuqtai nazaridan jozibador va shariat tomonidan ruxsat etilgan loyihalarga ega bo'lgan tadbirkorlar va korporatsiyalarni moliyalashtiradilar. Investitsiya loyihasidan olingan foyda investor va mablag' oluvchi o'rtasida oldindan kelishilgan ulushda taqsimlanadi. Biroq, har qanday daromad, agar u shaxsiy mehnat, bilim, vaqt va kuch sarflamasdan olinsa, taqiqlanadi.

Islomiy banklar tomonidan to'lanadigan haq berilgan kreditga emas, balki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarga bog'liq. Islom moliyasi tamoyillariga muvofiq ishlaydigan bank xuddi an'anaviy bank kabi korporativ va chakana mijozlarning pul resurslarini jalb qiladi va saqlaydi, mijozlar esa moliya muassasasiga o'z pul mablag'larini loyihalarga sarflash huquqini beradi. Moliyaviy institut va investorlar foydani taqsimlash mexanizmi va ularni taqsimlash nisbatlarini o'z ichiga olgan investitsiya shartnomasini tuzadilar. Kelishuvda, shuningdek, bozordagi ayrim hodisalar ro'y bergan taqdirda moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli ko'rsatilgan, ammo bankning to'g'ridan-to'g'ri aybini isbotlash (xatolar, beparvolik, suiiste'molliklar) direktorlar tomonidan yo'qotilgan barcha yo'qotishlarni qaytarishga imkon beradi.

Islom banki bir vaqtning o'zida maslahatchi, tahlilchi va texnik yordam ko'rsatuvchining vazifalarini bajaradigan vositachi (moliyaviy agent) vazifasini bajaradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Islom moliya muassasasi o'z mijozlari va sheriklarining muvaffaqiyati bilan bevosita qiziqadi, chunki bu holda u foyda keltiradi. Odatda, bank kapitali xavf-xatarlarga duch kelmaydi, chunki bank bilan hamkorlik tamoyillari (muzoraba) bo'yicha investitsiya shartnomalarini tuzgan investorlarning mablag'lari loyihalarga sarflanadi. Loyiha muvaffaqiyatsiz bo'lgan taqdirda, bankning zararlari farazli ravishda mumkin bo'lgan, ammo olinmagan, foydani, shuningdek loyihani amalga oshirish davrida xarajatlarni tashkil etadi. Albatta, har qanday islomiy bank buning oldini olishga harakat qiladi, chunki hatto bitta loyihaning muvaffaqiyatsizligi butun bankning qiyofasi va obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy savdolarida odob-axloq, islom dini nuqtai nazaridan eng asosiy o'rin tutadi. Ta'ma, gumon, monopoliyaga cheklovlar, yuqori xavfli bitimlar va garov o'tkazmalari taqiqlanganligi sababli Islom dini axloqsiz va ta'minlanmagan daromadning haqiqiy emasligi iqtisodiy faoliyat natijasi xalq manfaatiga xizmat qilishini ta'minlaydi, aholining tabiiy tabaqalanishidan tanglikni yengillashtiradi.

Hamkorlik va foyda va zararlarni bo'lish tamoyillariga asoslangan instrumentlar, xavf-xatarlarning umumiy javobgarligi, musulmon tadbirkorlarning biznes intizomini mustahkamlash, ularni xavfni baholash, qarshi kurashlarni tekshirish, iqtisodiy hisob-kitoblar va shartnomaviy munosabatlarga ko'proq e'tibor berishga majbur qiladi. Islom dinida qabul qilingan moliyaviy vositalardan foydalanish real sektorning banklarning ehtiyojlariga bo'ysunishining kamayishiga yordam beradi. Islom iqtisodiy konsepsiyasida pul mablag'lari real sektordagi investitsiya talabiga muvofiq shakllanadi. Islom moliyaviy bozorlarida daromadlar darajasi boshqa yo'l bilan emas, balki samarali sektordagi tendensiyalarga bog'liq, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish sektori uchun qulay investitsiya muhitini yaratadi (Калимуллина, 2010).

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Yarim asrdan ortiq faol amaliy rivojlanishga ega bo'lgan islom yuristlari islom moliya mahsulotlarining barqaror shartnomaviy modellarini ishlab chiqdilar, ular ham musulmon, ham islom bo'lmagan davlatlarning qonunchilik tizimida optimal darajada amalga oshiriladi;

2. Islom moliyasi 75 davlatda rivojlanmoqda. Uning qo'l ostidagi aktivlar 2 trillion dollarlik ko'rsatkichdan o'tgan. Bundan tashqari, u har yili 15-20 foizga o'sib bormoqda, turli dindagi mijozlarni jalb qilmoqda (Ismatov, 2011);

3. Ayrim davlatlarda sinovdan o'tgan moliya tizimining rivojlangan bissektoral tuzilmalaridan O'zbekiston sharoitida qo'llash uchun namuna sifatida foydalanish mumkin;

4. O'zbekistonda islom moliyasining asosiy mahsulotlari hisoblangan moliyaviy lizing, murabaha va musharakadan foydalangan holda islom moliyasi tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritishning huquqiy asosi "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5583 raqamli Prezident farmoni bo'lishi mumkin (Farmon, 2018);

O'zbekistonda islomiy moliya tamoyillari asosida bank moliyalashtirishni yo'lga qo'yish uchun "Islom moliyasi va bank ishi to'g'risida"gi qonun yaratilishi, me'yoriy hujjatlar, jumladan: Soliq kodeksi, "Ipoteka to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", Fuqarolik kodeksi, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida", "Garov to'g'risida", "Lizing to'g'risida" va boshqa qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish talab etiladi.

"Islom moliyasi va bank ishi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Mavjud islom moliya tashkilotlari faoliyati uchun huquqiy asos yaratish, shuningdek, yangi biznesni, shu jumladan chet el islom biznesini boshlashga jur'at etmagan tadbirkorlar uchun "yashil chiroqni yoqish";

2. Musulmon davlatlari sarmoyasini moliyaviy aylanmasiga jalb qilish, investitsiya loyihalarining sifati va ishlab chiqilish darajasini oshirish, investitsiyalar bo'yicha qaytarilmaslik xavfini kamaytirish, shuningdek investitsiyalarning samaradorligini oshirish va ularni qaytarish muddatini qisqartirish;

3. Kichik va o'rta biznes, yosh va boshlang'ich tadbirkorlarni, ya'ni an'anaviy banklarga kredit berish uchun ko'pincha yoqimsiz bo'lgan toifalarni qamrab oladi;

Bu chora-tadbirlar to'plamining amalga oshirilishi, uning asosiy qismi aholi uchun yangi, adolatli va tushunarli iqtisodiy modelni yaratish bo'ladi, inqirozlar, o'zgaruvchanlik va spekulyativ hujumlardan himoyalangan milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining namunasiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar / Лумепамыра / Literature:

Abul Hassan, M.A. (2019) *Choudhury Islamic Economics: Theory and Practice* Routledge Taylor & Francis Group, London and New York. 26.

Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.11.2018-yildagi PF-5583-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4076948>.

Hajj Maulid Makokha (2017). *Islamic Economics and Finance*. Islamic University of Al-Madinah Al-Munawwarah, 2.

Islahi A. A. (2010). *Four generations of Islamic economists*. *Journal of King Abdulaziz University, Islamic Economics*, 23(1), 165.

Ismatov R. (2011) *Islamic Finance in Russian Federation. Development and prospects. President of ASSAIF Alberto Brunioni's Interview. International Accounting. [Исламские финансы в РФ. Развитие и перспективы (интервью с Президентом ASSAIF Альберто Бруньони)]*. *International financial accounting*, no. 23 (173), pp. 35–38 (in Russian).

Kabir Hasan M., Mervin K. Lyuis. (2007) *Handbook of Islamic Banking* Edward Elgar Cheltenham, UK Northampton, MA, USA. 6.

Mahmoud A. El-Gamal. (2006) *Islamic Finance Law, Economics, and Practice*. Cambridge university press, Cambridge, New York. 73.

Muhammad Ayub. (2007) *Understanding Islamic Finance*. John Wiley & Sons, Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England, 24.

Журавлев А.Ю. (2015) Ислам и экономика. 3.11.2006 г. [Электронный ресурс] URL: <http://politeconomy.ng.ru>, <http://forum.aztop.com/index.php?showtopic=25595> (кузатилган санаси: 8.12.2015).

Калимуллина М.Э. (2010) Институциональные особенности исламского бизнеса и современная деловая практика: эффект финансовой колеи // Вестник Финансовой академии. № 6 (60). С. 71–74.